

**BO'LAJAK MUXANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QITISHDAGI ZARURIY JIHOZLAR****Gapirjonova Dildora Baxodir qizi***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich 25_02-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası**katta o'qituvchisi, (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni, muxandislar va tibbiyot xodimlarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanishning zaruriyati yoritilgan. Mualliflar ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktiv tamoyillar, kasbiy pedagogikaning maqsadi va vazifalari, shuningdek bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirish usullarini tahlil qiladilar. Maqolada pedagogik tadqiqot metodlari (kuzatish, suxbat, anketa, test va h.k.) va sinf - dars tizimining o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi, pedagogik maxoratning tarkibiy qismlari hamda talabalarning intellektual salohiyatini oshirish masalalari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlari: pedagogik maxorat, kasbiy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari, sinf dars tizimi, kasbiy malaka, tadqiqot metodlari, muhandislik ta'limi, intellektual rivojlanish, kasbiy pedagogika.

Abstract This article highlights the necessity of using modern pedagogical technologies and information tools in the process of training future specialists, engineers, and medical professionals. The authors analyze didactic principles in organizing the educational process, the goals and objectives of professional pedagogy, as well as methods for developing professional competencies and skills in future specialists. The article also provides a detailed description of pedagogical research methods (such as observation, interviews, questionnaires, tests, etc.) and the specific characteristics of the classroom-lesson system. In addition, the interconnection between education and upbringing, the structural components of pedagogical mastery, and issues related to enhancing students' intellectual potential are scientifically substantiated.

Keywords: pedagogical mastery, professional training, information technologies, classroom-lesson system, professional competence, research methods, engineering education, intellectual development, professional pedagogy.

Kirish: Jahon hamjamiyatidagi qo'shilishni tamillaydigan demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim ro'l o'ynaydi. Kasbiy pedagogika - bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini axborot texnologiyalari vositasida o'qitish talablar uchun mo'ljallangan bo'lib berilgan talablarga to'liq javob beradi, kasbiy pedagogika shaxsga doir bilim, ko'nikma malakalarini shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. M. Mirziyoyev shaxsning xar tomonlama kamol topishi va farovonligi ma'nfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va tasirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq - atvorning andozalarini o'zgartirish, mamlakatda amalga oshirayotgan ta'lim islohatlarining asosiy maqsadi kuchli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash keraglini o'z nutqlarida qayd etganlar. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlarini salohiyatli

mutaxassislrni tayyorlashni yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Haqiqatdan ham bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfa'atlari yo'lida unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Keng ma'noda pedagogik shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqishi va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra kasbiy sohasida ta'lim olish keginchalik shu sohaga kirishib moslasha borishi vanihoyat yillar davomida yetuk va malakali soha mutaxassisi bo'lib yetishishi tushuniladi.

Asosiy qism: Dedaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos - o'rganuvchi, didasko - o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlar, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va uning faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakli, metod vositalari, natijasi, ta'lim jarayonining takomillashtirish yo'llari va h.k. larini tadqiq etadi. Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va mahsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim xar bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy ma'noni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Kasbiy talim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligining ta'millashga imkon beruvchi, ta'lim olish uchun esa asos bo'ladi. Maxsus ta'lim o'zida mutaxassislik hususiyatlarini namoyon qilib shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berishasosida amaliy ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlariniamalga oshirishga ko'ra: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan kegingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Kasbiy pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilashida ijtimoiy munosabatlar mazmuni davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyat barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak manaviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tayyorlash tizimini ishlab chiqarish, ilmiy istiqlol g'oyasi asosida, ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan horijiy mamlakatlar ta'lim tizimini, tajribasini o'rganish asosida uzliksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Tibbiy ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mzmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarini umumlahtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Kasbiy pedagogik mutaxassislarini kasbiy pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim - tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim - tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yoritish.
9. Oila tarbiyasini muaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy metodik tavsiyalarini ishlab chiqish.

Kasbiy metodika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yaratadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi; shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish va o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot rivojlanishi.

Shaxs - pedagogik va psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-xarakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan hulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat azosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy, tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, hulq - atvori va dunyoqarashini tartib toptirish jarayoni.

Ta'lim - talabalarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini kengaytirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmuyidir.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishining avtomatlashtirilgan shaklidir.

Ma'lumot - ta'lim - tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmuyi.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishda namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Ayni damda O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dilektiv yondashuvga asoslanadi. Kasbiy pedagogik hodisa, voqeylik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik yondashuv va jarayonlarning umumiy aloqasi ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji, uning psixologik jarayonini intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama - qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va ro'li shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi. Kasbiy pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab - muayyan muddatni taqozo etuvchi izchilik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur.

Ular quyidagilar:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi.
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi.
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv.
- 5) tajriba - sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yoshi, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi.

- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish.

- 7) Tadqiqot natijalarini aytilib o'tilishi kafolatlanganini ta'minlash.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Kasbiy pedagogik kuzatish metodi
2. Suxbat metodi
3. Anketa metodi

4. Intervyu metodi
5. Ta'lim muassasi hujjatlarini tahlil qilish metodi
6. Test metodi
7. Kasbiy pedagogik tahlil metodi
8. Kasbiy pedagogik tajriba metodi
9. Matematik - statistik metodi

Kasbiy pedagogik kuzatish metodi, ya'ni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiqi etilayotgan muammo - holat aniqlanadi. Tajriba - avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos hususiyatlarga ega, kuzatish aniq maqsad asosida uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan kasbiy pedagogik kuzatish ta'lim - tarbiya sifatini oshirish, talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Kasbiy pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1. Kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik
2. Kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish
3. Kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish
4. Har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish
5. Xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Ishlab chiqarish ta'limi bosqichlari va tashkiliy shakllarining nazariy ehtiyojlari, ta'lim - tarbiya qonuniyatlariga tamoil kabilarga ko'ra kasbiy pedagogika fanlari mashg'ulotlariga quyidagi talablar talablar qo'yilishi lozim: fan texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish; darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta'minlash; ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda yuqori samarali o'quv-bilish faoliyati uchunshart-sharoit yaratish; o'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish; ta'limoluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish; ta'lim oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish; darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish; didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish; nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish; zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish; ta'lim oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimiva kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish; darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash. Kasbiy pedagogika bo'yicha zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

O'qituvchi faoliyatining tuzilishi kasbiy pedagogik mahorat o'qituvchilar pedagogik amaliyotda ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda hulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogik mahoratda amaliyot o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamidida takomillashib boradi.

Adabiyotlar

1. Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. Жамоавий монография. – Андижон: Step by step print, 2020. – Б. 67-69.
2. З.Ж.Жаназарова Современная семья в Казахстане и её проблемы. – Алмата: Qazaq universiteti, 2004. – 257 с.
3. Н.Л.Зеланд Кашгария и перевалы Тянь-Шаня: путевые записки. – Омск: Тип. Окр. “Штаба”, 1888. – 234 с.
4. А.И.Левшин Описание орд и степей казахов. 2-е изд. доп. – Астана: “Алтын кітап”, 2007. Т. 9. – 212 с.
5. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.